

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

7/S-son (4-jild)

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ S/7 (4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

Саидов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ходим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалоҳонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулов Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаххаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилевич – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Аҳмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат ҳавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Эргашев Икром Абдурасулович – юридик фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохид Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Караматдиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабобовна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

Umurqulov Kamoliddin

O'ZBEK XALQINING OILAVIY MAROSIMLARINING TARBIYAVIY AHAMIYATI 9-12

Muhamedov Asror

G'ARB RENNESANSIGA TURTKI BO'LGAN OMILLAR 13-22

Jiyanbekova Sharofat Abdikaharovna

SOVET DAVRIDA KITOV TAQIQLARIGA NISBATAN O'ZIGA XOS SENZURA
AMALIYOTLARI 23-30

Сабитова Коринна Сабировна

ШКОЛЬНОЕ И СРЕДНЕ-СПЕЦИАЛЬНОЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ ОБРАЗОВАНИЕ В
УЗБЕКИСТАНЕ В ГОДЫ ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ 31-37

Vaxabov Azizjon Xamidovich

USMONIYLAR SALTANATI VA O'RTA OSIYO XONLIKLARINING O'ZARO DIPLOMATIK HAMDA
ELCHILIK ALOQALARI 38-44

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Xolmuradov Musurmon Avlaqulovich

MAMLAKATIMIZ TIJORAT BANKLARI AKTIVLARI SAMARADORLIGINI TAKOMILLASHTIRISH
MASALALARI 45-51

Madiyev Shaxzod Shodmon o'g'li, Xurramova Zarina Xolboyevna

QISHLOQ XO'JALIGI ISHLAB CHIQRISHIDA TEXNIK SALOHİYATDAN FOYDALANISHNING
IQTISODIY MOHIYATI VA NAZARIY ASOSLARI 52-57

Самадов Салохиддин Исматович

ИННОВАЦИОН ТАДБИРКОРЛИК ФАОЛИЯТИ ВА УНИНГ ИҚТИСОДИЁТДАГИ ЎРНИ..... 58-66

Хуррамов Азамат Файзуллаевич

ИНСОН КАПИТАЛИНИ ЖАРАЁН-НАТИЖА ТАМОЙИЛИ АСОСИДА ТАҲЛИЛИ 67-74

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Sharipov Abdukhakimjon Ziyotdinovich

YANGI O'ZBEKISTON JAMIYATI TARAQQIYOTI IDEOSFERASIDAGI MA'NAVIY O'ZGARISHLAR
DINAMIKASI 75-80

Mustafaev Alimardon Alijonovich

THE MAIN VECTORS OF THE EVOLUTION OF COMPARATIVE PHILOSOPHY IN THE CONTEXT
OF CONTEMPORARY CIVILIZATIONAL DEVELOPMENT 81-89

Mamasaliev Mirzoulug' Mirsaidovich

"G'ARB MADANIYATIDA SABR-TOQAT KONSEPSIYASINING O'ZGARISHI" 90-95

Shadmanov Qurbon

FRENSIS BEKON INDUKTIV USULI VA TA'LIM, TARBIYA VA O'Z-O'ZINI TARBIYALASH
G'OYALARI 96-101

Usmonov Farkhod Lapasovich

PHILOSOPHICAL ANALYSIS FREEDOM OF INFORMATION 102-109

*Atakulov Mavlonbek Saitkulovich*YOSHLARNI SOG'LOM MA'NAVIY MUHIT ASOSIDA TARBIYALASHDA
FUQAROLIK MAS'ULIYATI O'RNI 110-115**10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI***Amanov Abdijabbor Sattarovich*

O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA MURAKKAB SINTAKTIK TUZILMALAR TAHLILI 116-121

Xudoynazarova O'g'lonoy Allamurodovna

DINIY BARQAROR BIRIKMALARNING STILISTIK XUSUSIYATLARI 122-125

*Hayitova Shohida Erkin qizi*KONSEPT TUSHUNCHASINING TALQINI VA KONSEPTGA OID TADQIQOTLAR
TASNIFI 126-132*Qodirova Mukaddas Tog'ayevna*

TILSHUNOSLIKDA BIZNES DISKURS: TADQIQ, TASNIF VA TAHLIL 133-138

Aripova Aziza Xasanovna

NUTQ MADANIYATI VA NUTQ ODOBI MASALALARINING TARIXIY TAKOMILI 139-143

*Tillabayeva Zilola Raxmatillayevna*QARLUQ SHEVALARIDA TABU VA EVFEMIZMLAR QO'LLANILISHI YUZASIDAN
MULOHAZALAR (SAMARQAND VILOYATI MISOLIDA) 144-148*Axmedova Aziza Komilovna*

PSIXIATRIK BADIY TAHLIL ASOSLARI 149-153

Зокирова Шахзода Нодиржон қизи

ТЕЛЕВИЗИОН НУТҚНИНГ РИТОРИК АСПЕКТИ 154-158

Yusupaliyeva Fazilat Yusupaliyevna

METHODS IN TEACHING ENGLISH AND THEIR IMPORTANCE 159-163

Fayzullayeva Dilfuzaxon G'ulomjon qizi

ADIB QALBIDAN: QAHRAMON RUHIYATIDA YOZUVCHINING IZI..... 164-169

Negmatova Mumtozbeqim

UZBEK TERMINOLOGY FOR BANKING SECTOR 170-174

*Omondavlatova Latofat Ne'matulla qizi*O'TKIR HOSHIMOVNING "DAFTAR HOSHIYASIDAGI BITIKLAR" ASARIDA QO'LLANILGAN
LINGVOMADANIY BIRLIKLER TAHLILI 175-178**12.00.00 – YURIDIK FANLAR***Ismaylov Raxat Aminbayevich*NORMA IJODKORLIGI FAOLIYATINI RAQAMLASHTIRISHNING AYRIM NAZARIY-HUQUQIY
MASALALARI 179-183*Сеитниязов Камарбек Парахатович*ДАВЛАТ ФУҚАРОЛИК ХИЗМАТИ ТУШУНЧАСИНИНГ ЎЗИГА ХОС
ХУСУСИЯТЛАРИ 184-191

Нуруллаев Шохрух Шухратуллаевич

ҚУРИЛИШДА АТРОФ-МУҲИТНИНГ ҲУҚУҚИЙ МУҲОФАЗАСИ: ДАВЛАТ БОШҚАРУВИ ВА
НАЗОРАТИ 192-198

Hamdamov Shahzod Maqsud o'g'li

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI TARAQQIYOTINING

HUQUQIY ASOSLARI 199-210

Шокиров Ойбек Азизжон ўғли

ҚОНУНИЙЛИК НАЗАРИЙ ТУШУНЧАСИ ВА УНИ МАҲАЛЛИЙ ДАВЛАТ ҲОКИМИЯТИ
ОРГАНЛАРИ ҚАРОРЛАРИДА ТАЪМИНЛАШНИНГ НОРМАТИВ-ҲУҚУҚИЙ

АСОСЛАРИ 211-218

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Bozorova Muslima Qodirovna, Istamova Dilnoza Norboyevna

RAQAMLI TA'LIM SHAROITIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI KASBIY FAOLIYAT UCHUN KO'P
BOSQICHLI TAYYORLASH ASOSLARI 219-222

Rabbimova Nodira Tashtemirovna

FROM SCALPEL TO BLACKBOARD: HOW MEDICAL TRAINING IS REVOLUTIONIZING

PEDAGOGICAL APPROACHES 223-227

Саидова Камола Усканбаевна

КОМПАРАТИВНЫЙ АНАЛИЗ МЕТОДОВ ВОСПИТАНИЯ В ВОСТОЧНОЙ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ
МЫСЛИ 228-233

Худойназарова Дилрабо Абдурашидовна

БЎЛАЖАК ПЕДАГОГЛАРНИ МАЪНАВИЙ ТАРБИЯ ФАОЛИЯТИГА ТАЙЁРЛАШНИНГ

ИЖТИМОЙ-ПЕДАГОГИК ЗАРУРАТИ 234-239

Гаффаров Азизжон Муҳаммадсаидович

МУСТАҚИЛ ТАЪЛИМ: МОҲИЯТИ ВА ЗАРУРАТИ 240-245

Buronova Iroda

UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARI RAHBARLARIDA MEDIAKOMPITENTLIKNI

RIVOJLANTIRISHNING USLUBIY ASOSLARI 246-250

Matyakubova Feruza Egamovna

ANATOMY OF LEARNING: BRIDGING THE GAP BETWEEN MEDICINE AND

MODERN EDUCATION 251-254

Received: 10 September 2024
Accepted: 15 September 2024
Published: 25 September 2024

Article / Original Paper

ECONOMIC ESSENCE AND THEORETICAL BASIS OF USING TECHNICAL POTENTIAL IN AGRICULTURAL PRODUCTION

Madiev Shakhzod Shodmon ugli

Teacher of Tashkent State Agrarian University

Khurramova Zarina Kholboevna

Masters degree student of Tashkent State Agrarian University

Abstract. This article discusses the essence of the concept of technical potential in the agricultural sector, its composition and structure, and its importance in the development of the sector. Opinions were expressed about the proposal of the concept of "technical potential" as an economic category in agricultural production.

Key words: potential, resource potential, technical potential, technical-technological process, agro-industrial complex, productivity, professional-qualification level, economic potential.

QISHLOQ XO'JALIGI ISHLAB CHIQUARISHIDA TEXNIK SALOHIYATDAN FOYDALANISHNING IQTISODIY MOHIYATI VA NAZARIY ASOSLARI

Madiyev Shaxzod Shodmon o'g'li

TDAU "Biznesni boshqarish" kafedrasi o'qituvchisi

Xurramova Zarina Xolboyevna

Toshkent davlat agrar universiteti magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada agrar sohada texnik salohiyat tushunchasining mazmun-mohiyati, uning tarkibi va tuzilmasi, sohani rivojlantirishdagi ahamiyati haqida so'z yuritiladi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida "texnik salohiyat" tushunchasining iqtisodiy kategoriya sifatida taklif etilishi haqida mulohazalar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: salohiyat, resurs salohiyati, texnik salohiyat, texnik-texnologik jarayon, agrosanoat majmuasi, samara, kasbiy-malakaviy daraja, iqtisodiy salohiyat.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI7Y2024N07>

Kirish. Ma'lumki, qishloq xo'jaligi O'zbekiston iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri sanaladi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish salmog'i va sifatini oshirishda sohaga yangi texnologiyalar va texnika vositalarini keng joriy etish, ulardan foydalanish samaradorligini oshirish katta o'rin tutadi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga joriy etilgan yoki joriy etilayotgan yangi texnologiyalarning samarasi ko'p jihatdan ularning texnika vositalari bilan ta'minlanish darajasiga bog'liq. So'nggi yillarda fermer xo'jaliklarini texnika bilan intensiv ta'minlanayotganligi mahsulot yetishtirishdagi sermehnat ishlarni mexanizmlar yordami bilan

bajarishga imkon bermoqda. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining texnik salohiyati va texnik jihozlanganligi darajasi ko'plab jihatlar bilan o'zaro bog'liq bo'ladi.

Mazkur holat qishloq xo'jaligi subyektlarida texnik salohiyatni oshirish ulardan samarali foydalanishning tashkiliy, iqtisodiy va huquqiy mexanizmlarini ishlab chiqish, mazkur jarayonlarning ilmiy-nazariy va metodologik jihatlarini tizimli tadqiq qilish bugungi kunda dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Ushbu maqolamiz nazariya va amaliyot uchun muhim bo'lgan ushbu muammolarni tadqiq etish, shuningdek, qishloq xo'jaligida texnik salohiyatning ahamiyati va mohiyati bilan bog'liq bo'lgan faoliyatni nazariy jihatdan o'rganish va tadqiq etishda dolzarblik kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Bozor sharoitida, narxlarning o'zgarishi, texnologiya va mashinalarning doimiy takomillashuvi sababli texnikaning kapital element sifatidagi ahamiyatini aniqlashtirish talab qilinadi, natijada uning qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi natijadorligiga ta'sir darajasi o'zgaradi. Bundan tashqari, agarda muayyan tarixiy bosqichda resurslarning asl mohiyati to'g'risida fikr yuritiladigan bo'linsa, ularning cheklanganligi va yashirin imkoniyatlari sharoitida "salohiyat" atamasini qo'llash zaruriyati paydo bo'ladi.

Olimlar va tadqiqotchilar tomonidan "salohiyat" atamasining turlicha talqinlarini qo'llash taklif etiladi: iqtisodiy, resurs, ishlab chiqarish, texnik, texnologik, intellektual, mehnat va hokazo.

Salohiyat – biror-bir vazifani hal qilish, muayyan maqsadga erishish uchun foydalanish mumkin bo'lgan manbalar, imkoniyatlar, vositalar, zaxiralar, alohida shaxs, jamiyat, davlatning ma'lum bir sohadagi mavjud imkoniyatlari hisoblanadi.

Iqtisodiyotda "salohiyat" deganda biror-bir vazifani hal qilish, muayyan maqsadga erishish uchun foydalanish mumkin bo'lgan manbalar, imkoniyatlar, vositalar, zaxiralar tushuniladi [3; 70].


Agrar sohada "salohiyat" tushunchasi XX asrning 70-80-yillarida ilmiy tus olgan, iqtisodiy adabiyotlarda korxona resurs imkoniyatlarini ko'tarish va amalga oshirish uslubiyati va amaliyotiga, ularning pirovard natijalarini baholashga, ya'ni salohiyat iqtisodiy mohiyatini bevosita yoki bilvosita ochib beradigan muammolarga katta e'tibor qaratilgan.

Iqtisodiy salohiyat – iqtisodiyot tarmoqlarini sanoat va qishloq xo'jaligi mahsulotini ishlab chiqarish, qurilish, yuklarni tashish, aholiga xizmat ko'rsatish, aholining talablarini, jamiyat ehtiyojlarini qondirishni ta'minlash bo'yicha qobiliyatlari yig'indisidir [3; 70].

U.P.Umurzoqovning fikricha, resurs salohiyati – mazkur bosqichdagi eng taraqqiy etgan va qulay sharoitlar asosida, bir vaqtning o'zida ekologik muvozanatga ham rioya qilgan holda, minimal solishtirma xarajatlarda mahsulot va xizmatlarning maksimal hajmini ta'minlash qobiliyatiga ega bo'lgan, mavjud moddiy va boshqa ishlab chiqarish omillarining pul ekvivalentidagi yig'indisidir [6; 272].

N.A.Artemenkoning ishlarida sanab o'tilgan ikkita yondashuv birligini kuzatish mumkin. U salohiyatni resurs (ishlab chiqarish bosqichidagi avans qilingan asosiy va aylanma vositalar) va xarajat (ishlab chiqarishga jalb qilingan resurslarni qo'llash) qismlariga ajratishni taklif etadi.

Shulardan kelib chiqib, qishloq xo'jaligi salohiyatini sxematik tarzda, quyidagi ko'rinishda taqdim etish mumkin: iqtisodiy salohiyat, resurs salohiyati, ishlab chiqarish salohiyati (1-rasm).



1-rasm. Qishloq xo'jaligi salohiyati turlari

Salohiyatning uchala turi ham o'zaro bog'langan, ammo bir-birining o'rnini bosmaydi, chunki ular taqror ishlab chiqarish jarayonining turli bosqichlariga tegishlidir.

Agrar sektorning texnik va texnologik salohiyatini, agrar soha ishlab chiqarish salohiyatining tarkibiy qismi sifatida qarash to'g'ri bo'ladi. Ko'p sonli ta'rif va tushunchalar mavjud bo'lib, "ishlab chiqarish salohiyati", "resurs salohiyati", "iqtisodiy salohiyat", ayrim hollarda bitta atama turli salohiyatlarni bildiradi yoki salohiyatning bitta turini bir nechta atamalar bilan atashadi.

Muhokama. "Texnik salohiyat" tushunchasiga ta'rif berishda tadqiqotchilarning qarashlari ham juda xilma-xil. Olimlarning bir qismi, texnik salohiyat – mahsulotning tegishli hajmini ishlab chiqarish, ishlarining muayyan hajmini bajarish qobiliyatiga ega bo'lgan texnik vositalar yig'indisidan iborat, deb hisoblasalar, boshqalarning fikricha, salohiyat bu resurslar emas, balki mahsulot ishlab chiqarish maqsadlariga erishish imkoniyatlaridir. Bizningcha, texnik salohiyatning resurs tarkibini (ya'ni, agroishlab chiqarish maqsadlariga erishish uchun foydalanish mumkin bo'lgan resurslar) va ushbu resurslardan foydalanishning potensial imkoniyatlari bir xil emas. "Texnik resurs" tushunchasidan farqli ravishda, "texnik salohiyat" tushunchasi nafaqat texnik vositalar yig'indisini, balki mashinalarning amalga oshirilishi mumkin bo'lgan texnik, texnologik, iqtisodiy tavsiflari yig'indisini ham bildiradi. Bundan tashqari, qishloq xo'jalik mashinalarining potensial tavsiflarini amalga oshirish ularda faoliyat yuritayotgan mexanizatorlarning kasbiy mahorati darajasiga ham bog'liq, bu esa texnik-texnologik va mehnat salohiyatini birlashtiradi. Agrar sektor texnik-texnologik salohiyatini ko'rib chiqishda ushbu tushunchalarning uzluksiz aloqasini hisobga olish lozim bo'ladi.

Turli mualliflar ta'riflarining xilma-xilligi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi samaradorligini oshirish uslubiyati va amaliyoti muammosiga bo'lgan qarashlar rivojlanishi bilan tushuntiriladi. Turli mualliflarning tadqiqotlari natijalarini tahlil qilgan holda berilgan ta'rif texnik-texnologik salohiyat mohiyatini eng umumiy holda ifodalaydi deb hisoblash mumkin: qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi texnik-texnologik salohiyati – mavjud texnik va texnologik hamda mehnat resurslaridan foydalangan holda, qishloq xo'jaligi mahsulotini ishlab chiqarish bo'yicha ishlarining muayyan turlari va hajmini vaqt birligida (soat, kun, mavsum va h.) bajarish imkoniyatidir. Ushbu ta'rifdan kelib chiqqan holda, texnik-texnologik salohiyat ishlab chiqarish salohiyatining tarkibiy qismini tashkil etadi, u esa, o'z navbatida, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining muhim tavsifi – qo'yilgan maqsadlarni amalga oshirish qobiliyati hisoblanadi. Mashina va uskunalar, transport vositalari, chorvachilikdagi mexanizatsiya vositalari yig'indisi qishloq xo'jaligi korxonalari texnik salohiyatining resurs tarkibiy qismi bo'lib xizmat qiladi.

Qishloq xo'jaligining texnik salohiyati to'g'risida fikr yuritar ekanmiz, shuni nazarda tutish lozimki, barcha mashina va uskunalar albatta qishloq xo'jaligi korxonalari, fermer xo'jaliklari mulki bo'lishi shart emas. Ular ijarada, xo'jaliklar buyurtmalari bo'yicha mexanizatsiya ishlarini bajaradigan, korxonaning xo'jalik yuritishida yoki operativ

boshqaruvida bo'lishi mumkin. Bu mashina-traktor parklari, agrotexservis, agrokimyoviy xizmat ko'rsatish korxonalari, melioratsiya bo'yicha korxonalar va boshqalar bo'lishi mumkin.

Qishloq xo'jaligi korxonalari, fermer xo'jaliklarida mavjud bo'lgan texnik vositalarning soni va tarkibi, texnik-ekspluatatsion va iqtisodiy tavsiflari, jismoniy eskirishi, ishonchliligi, ta'mirga yaroqliligi bo'yicha qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologiyasining mukammalligi, ishlab chiqarish xarajatlari, yig'im-terim, tashish, yig'im-terimdan keyingi qayta ishlash va saqlash jarayonlarida yuzaga keladigan hosil yo'qotishlariga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi. Demak, qishloq xo'jaligi mahsulotini birgalikda ishlab chiqarishning barcha ishtirokchilari texnik salohiyatining yig'indisini uning samaradorligini integral omili sifatida ko'rish mumkin. Texnik salohiyatni rivojlantirish va amalga oshirishdan olinadigan texnologik, iqtisodiy va ijtimoiy natija – samara shakllanishi sxemasini tizimli ravishda tasavvur qilish mumkin. Bundan ko'rinib turibdiki, texnik salohiyat tarkibida moddiy, mehnat va infratuzilma tarkibiy qismlari muhim rol o'ynaydi. Aynan ushbu elementlar, o'zaro yaqindan aloqada bo'lgan holda, texnologik, iqtisodiy va ijtimoiy natijaga asoslangan, texnik salohiyat rivojlanishi va amalga oshirilishi samarasini shakllantiradi, va aynan shular tadqiqotlarimizning predmeti bo'lib xizmat qiladi.

Natijalar. Qishloq xo'jaligi texnik salohiyatining tarkibi va tuzilmasi muhim tarkibiy qismlar bo'yicha farqlanadi, xususan:

- asosiy qishloq xo'jaligi mashinalari parki soni va tuzilmasi: traktorlar, kombaynlar, yuk avtomobillari; qishloq xo'jaligi mashinalarining tirkama asboblari, uskunalar va ashyolar bilan ta'minlanganligi, ularning asosiy mashinalarni tortish va boshqa tavsiflariga, hamda konstruktiv parametrlariga muvofiqligi;

- ta'mirlash va yonilg'i-moylash materiallarining mavjudligi va ular bilan ta'minlanganlik;
- mexanizatorlar bilan ta'minlanganlik va ularning kasbiy-malakaviy darajasi.

Ishlab chiqarish sharoitlari texnik salohiyatdan foydalanishga muhim ta'sir ko'rsatadi. Tahlillarning ko'rsatishicha, kichik xo'jaliklarda, quvvatli traktorlar, kombaynlar, katta yuk mashinalarining yuqori unumdorligidan to'laligicha foydalanilmaydi. Ishlab chiqarish salohiyatining ortiqchaligi esa xo'jalik faoliyatining iqtisodiy natijalariga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi texnik salohiyatini qayta ishlab chiqarish – bu faoliyatning muayyan davrida uni boshlang'ich bir holatdan berilgan pirovard holatga o'tishining maqsadli yo'naltirilgan jarayonidir. [7].

Qishloq xo'jaligida mashinalardan foydalanish darajasi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi xususiyatlari bilan belgilanadi. Birinchidan, qishloq xo'jaligida jonli mehnat xarajatlari yil davomida notekis taqsimlanadi, bu texnikadan foydalanish va mehnat resurslarini qo'llashga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Ayrim davrlarda mashina-traktor parklari kuchli yuklamaga ega (bahorgi ekin ishlari, don ekinlari hosilini yig'ish va h.), boshqa davrlarda esa texnika deyarli yuklamasiz foydalaniladi.

Ikkinchidan, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi, odatda, keng maydonlarda joylashgan bo'lib, yerga ishlov berish jarayonida texnika vositalarining harakatini ta'minlash ko'p mablag' talab etadi.

Va, uchinchidan, qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayonida (ham chorvachilik, ham o'simlikchilik) tabiiy biologik qonunlarni hisobga olish zarur bo'ladi. Bundan tashqari, qishloq xo'jaligida texnika ochiq havoda, turli harorat va iqlim sharoitlarida ish olib boradi [5].

Qishloq xo'jalik korxonalarining texnik resurslar bilan ta'minlanganligi darajasi va ularni ishlab chiqarish faoliyatining pirovard natijalariga ta'sir qilish imkoniyati sohani samaradorlikga erishishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shuning uchun nazariy jihatdan "ishlab chiqarish salohiyati" iqtisodiy kategoriyasini ajratish, uning resurs salohiyat tizimidagi o'rnini va mazmunini aniqlash zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Salohiyat kategoriyasining mohiyatiga nisbatan o'tkazilgan tahlil natijalari asosida uning asosiy tavsifiy belgilarini ajratish mumkin: miqdoriy va sifat parametrlari, funksional o'ziga xosliklar, ishlab chiqarish jarayonlari (resurslar va xarajatlar) o'rtasidagi aloqa xarakteri, salohiyat tarkibiy elementlarining butunligi (tizimlilik).


Shunday qilib, salohiyat – resurslarning integral qobiliyati bo'lib, u ularning miqdoriy, sifat va funksional tavsiflari bilan aniqlanadi. Uni amalga oshirishning asosiy shartlari bo'lib quyidagilar xizmat qiladi:

- 1) resurslarning oqilona muvozanati;
- 2) ishlab chiqarish jarayonida resurslarning rejali shakllanishi;
- 3) mahsulotning ularga xos hajm va turlarini ishlab chiqarishning yetarlicha darajada ekanligi.

Texnik salohiyat resurslardan yanada oqilona foydalanish va ularning samarasini oshirish qobiliyatini ifodalaydi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi, o'zining ixtisosligi tufayli, yetarlicha mehnat sig'imiga ega soha hisoblanadi. Shu munosabat bilan, mehnatning mexanik vositalaridan foydalanish ASM samarali faoliyatining strategik muhim sharti hisoblanadi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari innovatsion va resurs tejovchi texnologiyalar asosida texnik salohiyatni shakllantirish zaruriyatini belgilab beradi [4; 177].

Yuqorida keltirilgan barcha ta'riflarni umumlashtirgan holda, bizningcha, "texnik salohiyat" tushunchasining mohiyatiga aniqlik kiritish maqsadga muvofiq.



2-rasm. Qishloq xo'jaligi korxonasining resurs salohiyati tuzilmasi.

Belgilashlar:

E, M, KTS, A – resurslar: yer, mehnat, kapital (shu jumladan – texnik salohiyat), axborot resursi;

ΔE, ΔM, ΔKTS, ΔA – zaxiralar, resurslarning ishlab chiqarish imkoniyatlari.

Demak, texnik salohiyat, ishlab chiqarish salohiyati tuzilmasidagi kapitalning buyumlashgan qismidan iborat bo'lib, ishlab chiqarish salohiyati esa, o'z navbatida, resurs salohiyatning bir qismini o'z tarkibiga oladi.

Xulosa. Tahlil natijalarini umumlashtirgan holda, shunday xulosaga kelish mumkinki, qishloq xo'jaligining texnik salohiyati - bu ishlab chiqarish o'lchami va ixtisoslashuvi bilan belgilangan texnik vositalar va tuzilmalashtirilgan texnologiyalar yig'indisi bo'lib, ular mehnat resurslarining ishlab chiqarish imkoniyatlari bilan texnologik bog'langan, hamda yer resurslaridan samarali foydalanish bilan bog'liq texnologik jarayonlarni bajarish asosida mahsulotning muayyan miqdorini ishlab chiqarish imkoniyatini o'z ichiga oladi. Ishlab chiqarish kuchlari salohiyatining rivojlanish darajasi, uning tarkibidagi resurslar, shu jumladan, texnik-texnologik resurslar rivojlanishi darajasini oldindan belgilab beradi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining texnologik jarayoni texnika hisobiga amalga oshiriladi, bundan kelib chiqqan holda quyidagi iqtisodiy kategoriya taklif etiladi: "texnik salohiyat" – bu texnikaning muayyan vaqt davomida texnologik jarayonlarni bajarish qobiliyati yoki imkoniyatidir. Texnik salohiyat bu texnikaning miqdori va sifati hamda texnologiya darajasidir. U ishlab chiqarishning texnik resurslaridan to'liq foydalanganda bajarilishi mumkin bo'lgan, mexanizatsiyalashgan ishlar hajmini ko'rsatadi. Shunday qilib, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi samaradorligi korxonaning texnik salohiyatining ahvoli, qo'llanilishi va ta'minlanganligiga bog'liq bo'ladi.

Demak, texnik salohiyat bu ishlab chiqarish salohiyatining bir qismi bo'lib, u texnikani sifat va miqdoriy ta'minoti darajasida mahsulot ishlab chiqarish qobiliyatidir yoki quyidagi ta'riflarni keltirish mumkin. Texnik salohiyat bu iqlim o'zgarishi sharoitida innovatsion texnikalardan samarali foydalangan holda kam xarajatlar bilan sifat bo'yicha maksimal mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatidir.

Texnik salohiyat – qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini texnik jihatdan modernizatsiyalash asosida maksimal mahsulot ishlab chiqarish qobiliyatidir.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Rustamova I.B. Qishloq xo'jaligi texnik salohiyatini rivojlantirish mexanizmlari. "O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi" jurnali №2, 2012 y.
2. Ergashev R.X., Xamraeva S.N. Qishloq xo'jaligi infratuzilmasi iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma, - Toshkent: "Yangi avlod", 2012.
3. Мансурова Н.А. Вопросы оценки производственного потенциала фирмы: Сб. научных трудов «Предпринимательство в переходной экономике». – Тверь: Твер. гос. ун-т, 2006. – 70 с.
4. Ставцев А. Н. Экономическая эффективность использования технического потенциала в молочном скотоводстве. Диссертация на соискание кандидата экономических наук. Орел. 2011 г. 177 с.
5. Тменова А.К. Организационно-экономический механизм развития технического потенциала аграрного сектора 08.00.05 — Владикавказ, 2010.
6. Умрзаков.У.П. Пути повышения эффективности использования ресурсного потенциала аграрного сектора экономики (на материалах Республики Узбекистан): дисс... доктора.экон.наук. Ташкент. 2003.- 272 с.
7. Харламов Р.В. Организационно-экономические основы формирования и рационального использования технического потенциала регионального АПК. – Грозный, 2011.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ S/7 (4) – 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари**” электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).